“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi

TASDIQLANGAN

“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining
2022-yil 30-iyundagi
umumiy yig‘ilishining 56-son bayonnoma qarori

Sovg‘alar va ko‘ngilochar tadbirlar to‘g‘risida NIZOM

(yangi tahrirda)

Toshkent

Sovg‘alar va ko‘ngilochar tadbirlar to‘g‘risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Nizom “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) ijroiya apparati va filiallari xodimlarining uchinchi shaxsalar foydasiga va uchinchi shaxslardan sovg‘alar berish/olish hamda Kompaniya obro‘siga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan biznes va ko‘ngilochar tadbirlarda ishtirok etishi yoki ularga tashrif buyurishi/tashrif buyurmasligiga doir asosiy tamoyillari va qoidalarni belgilaydi.

1.2 Ushbu Nizom Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarning bir qismi bo‘lib, Odob-ahloq va etika kodeksi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan birgalikda qo‘llaniladi. Mazkur Nizom quyidagilarga tatbiq etilmaydi:

- marketing va reklama materiallari, aksiyalar o‘tkazilishi davomida beriladgan sovg‘alar;
- xodimlarni rag‘batlantirish dasturlari.

1.3 Nizomda qo‘llanilgan atamalar va qisqartmalar:

sovg‘a – uchinchi shaxslarga bepul beriladigan yoki ulardan olinadigan har qanday mulk, foyda yoki afzalliklar;

ishbilarmonlik sovg‘asi – Kompaniya xodimi va uchinchi shaxslar o‘rtasida mavjud ish munosabatlari yuzasidan uchinchi shaxsalardan olinadigan yoki ularga beriladigan har qanday qiymatdagi predmet (mulk va h.k.);

ishbilarmonlik va ko‘ngilochar tadbirlar – madaniy, sport va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etish uchun uchinchi shaxslarni taklif qilish yoki ulardan taklifnomalar olish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar, shu jumladan Kompaniya faoliyatiga va obro‘siga ta’sir ko‘rsatadigan, biznesni yuritish doirasidagi ishbilarmonlik tadbirlariga to‘g‘ri keladagan biznes tushliklar va ziyofatlar;

komplaens risklar – qonun talablariga, shuningdek, Odob-ahloq va etika kodeksiga rioya qilmaslik natijasida huquqiy va tartibga soluvchi sanksiyalar, moliyaviy yo‘qotishlar hamda Kompaniyaning ishbilarmonlik obro‘sini yo‘qotish xavfi;

brendli suvenir mahsulotlari – marketing dasturlari uchun mo‘ljallangan Kompaniya logotipi tushirilgan suvenir mahsulotlari;

vakillik harajatlari – Kompaniyaning o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va/yoki qo‘llab-quvvatlash maqsadida muzokaralarda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar (jumladan xorijiy) vakillarini, shuningdek, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi majlisi va Kompaniyaning boshqa yig‘ilish/majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar.

1.4 Ushbu Nizomning maqsadlari:

- Kompaniya xodimlarining sovg‘alar olish/berish va ko‘ngilochar tadbirlarda ishtirok etish/tashkil etishdagi xatti-harakatlari amaldagi qonunchilik, Odob-ahloq va etika kodeksi va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablariga muvofiqligini ta’minlash;
- Kompaniya xodimlari tomonidan sovg‘alarni olish/berish, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish va tadbirlarda ishtirok etishda manfaatlar to‘qnashuvi va komplaens risklarni minimallashtirish;
- Kompaniyada halol, vijdonan va mas’uliyatli biznes yuritishning umume’tirof etilgan asosiy tamoyillari va me’yorlariga rioya etilishini ta’minlash;
- Kompaniyada sovg‘alar olish/berish bo‘yicha yagona samarali nazorat tizimini yaratish.

1.5 Ushbu Nizomning vazifalari:

- Kompaniya xodimlari uchun sovg‘alar berish va olish, shuningdek, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish bo‘yicha qoidalar va standartlarni belgilash;

- Kompaniya rahbariyati va xodimlari e'tiboriga Kompaniyaning tabdirorlik amaliyoti va kundalik faoliyatidagi sovg'alarning maqsadlarini yetkazish;

- Kompaniya va uning imiji uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan sovg'alarni olish va berishni oldini olish, Kompaniya xodimlariga sovg'alar olish/berishning maqbul va nomaqbul holatlarini tushuntirish;

- Kompaniya xodimlarini sovg'alar olish/berishda mas'uliyatli va oqilona yondashishga, belgilangan qoidalarga va amalga oshiriladigan xatti-harakatlar standartlari doirasida harakat qilishga chaqirish;

- ichki hujjatlar, me'yoriy hujjatlar va me'yoriy hujjatlarning sovg'alarni olish/berish qonuniyligini tartibga soluvchi talablarga muvofiqligini ta'minlash.

2. Sovg'alar va ishbilarmonlik sovg'asi tushunchasi

2.1 Sovg'a keng ma'noda qiymatga ega bo'lgan har qanday moddiy va nomodiy, masalan, va'da, imtiyoz yoki tadbirlar uchun to'lovlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Sovg'alar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pul mablag'lari;
- mavzuli sovg'alar;
- sovg'ali sertifikatlar;
- qimmatli qog'ozlar;
- Kompaniya logotipi tushirilgan suvenir mahsulotlari;
- biznes va ko'ngilochar tadbirlar uchun taklifnomalar va chiptalar;
- chegirmalar (iqtisodiy asosga ega bo'lmagan);
- qulayroq xizmat ko'rsatish shartlari (iqtisodiy asoslanmagan).

Mazkur ro'yxat chegaralanmagan.

2.2 Ishbilarmonlik sovg'asi quyidagilardan iborat bo'lmasligi kerak:

- oluvchini obro'siga putur yetkazuvchi;
- kelajakda xolisona biznes-qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi;
- oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvini yaratadigan.

Ishbilarmonlik sovg'asi har qanday harakatni/harakatsizlikni rag'batlantirish sifatida, shuningdek, biznes-qarorlarni qabul qilish jarayonida berilishi yoki qabul qilinishi mumkin emas, aks holda bunday sovg'alar pora hisoblanadi.

2.3 Kompaniya biznes faoliyati davomida maqbul, an'anaviy biznes amaliyoti bo'lgan va hamkorlar, mijozlar va Kompaniya faoliyatida ishtirok etuvchi boshqa uchinchi shaxslar bilan munosabatlarni saqlashga xizmat qiladigan faqat biznes sovg'alarini rag'batlantiradi.

2.4 Sovg'alarni naqd pulda, shuningdek, ularning ekvivalenti (sovg'a kartalari, vaucherlar, sertifikatlar, qimmatli qog'ozlar va shunga o'xshash) ko'rinishida berish taqiqlanadi.

2.5 Ishbilarmonlik sovg'alari har doim Kompaniya tomonidan to'lanilishi lozim.

2.6 Ishbilarmonlik sovg'alarining sababi umume'tirof etilgan sanalar, davlat bayramlari (Yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Navro'z bayrami, Mustaqillik kuni va boshqalar), shuningdek, diniy bayramlar (Hayit va boshqalar), Kompaniya faoliyati yoki tarixidagi muhim voqealar (yubileylar, Kompaniya yutuqlari nishonlanadigan kunlar va boshqalar) hamda shaxsiy bayramlar (tug'ilgan kun, to'y marosimlari va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Ishbilarmonlik sovg'alari qimmat, ekstravagant va tez-tez takrorlanadigan bo'lmasligi kerak.

3. Sovg'alar berish va olish uchun umumiy talablar va cheklovlar

3.1 Sovg'alar berish:

3.1.1 Kompaniyada quyidagilarni sovg'a sifatida berishga ruxsat beriladi:

- aksiya va aksiyalar doirasida Kompaniya nomi va xizmatlarini targ'ib qilish maqsadida Kompaniya logotipi tushirilgan esdalik sovg'alari (brendli suvenirlar);

- ishbilarmonlik munosabatlarni saqlab qolish uchun tashqi sheriklar va boshqa uchunchi shaxslarga berishga mo‘ljallangan boshqa predmetli sovg‘alar.

3.1.2 Sovg‘alarni xarid qilish Kompaniyaning ichki hujjatlari bilan belgilangan xaridlar jarayoni va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.2 Uchinchi shaxslarga sovg‘alar xarid qilish va berish tartibi:

3.2.1 Sovg‘alar sotib olinishi bosh direktor bilan kelishilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Sovg‘alarni xarid qilishga rozilik olish uchun Kompaniya ijroiya apparatining boshqarma, xizmat va bo‘lim boshliqlari tomonidan asoslantirilgan bildirgi taqdim etiladi. Asoslantirilgan bildirgida (sovg‘a oluvchining F.I.Sh ish joyi, lavozimi), sovg‘ani berish sabablari, sovg‘aning qiymati, sovg‘aning tavsifi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Sovg‘alar bosh direktorning roziligisiz xarid qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.2.2 Kompaniya nomidan sovg‘alarni xarid qilish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Ko‘char mulkni hadiya qilish shartnomasi oddiy yozma shaklda tuzilishi kerak. Xatlar, elektron pochta orqali kelgan xatlar, fakslar yoki boshqa hujjatlar almashinuvi sovg‘alar berish to‘g‘risidagi yozma bitim tuzish bilan tenglashtiriladi.

3.2.3 Uchinchi shaxslar foydasiga beriladigan sovg‘alar qiymati respubikada o’rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 3 (uch) barabaridan 10 (o‘n) barobarigacha oshmasligi lozim. Belgilangan miqdor Kompaniya tomonidan bitta shaxsga nisbatan qo‘llaniladi. Bitta shaxsga turli xodimlardan bir nechta sovg‘alar berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.2.4 Barcha sovg‘alarni xarid qilish va ularni topshirish Kompaniyaning moliyaviy hisobotlarida to‘g‘ri hisobga olinishi va aks ettirilishi lozim, shu jumladan, sovg‘ani oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlrani oshkor qilish (F.I.Sh., ish joyi va lavozimi). Jismoniy shaxsga beriladigan sovg‘aning qiymati o‘rnatilgan tartibda soliqqa tortiladi.

3.3 Sovg‘alar olish.

3.3.1 Kompaniyaning barcha xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida, qiymatidan qat’iy nazar, uchinchi shaxsalardan sovg‘alar olinganligi to‘g‘risida antikorrupsiya@uztelecom.uz elektron pochta manzili yoki 55 501 77 87 telefon raqami orqali xabardor qilishlari shart.

3.3.2 Barcha sovg‘alar, ularning qiymatidan qat’iy nazar, xodimlar tomonidan Kompaniya omborxonasiga ixtiyoriy ravishda saqlash uchun topshirilishi va majburiy ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

3.3.3 Sovg‘alarni ro‘yxatga olish komplaens-nazorati funksiyasi yuklatilgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

3.3.4 Kompaniya xodimlari tomonidan ixtiyoriy topshirilgan sovg‘alar ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng, keyingi qaror Sovg‘alar va tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Sovg‘alar va tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha komissiya quyidagi vakolatlarga ega:

- sovg‘alarni baholash;
- sovg‘alarni qabul qilish yoki qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- sovg‘alar bo‘yicha adolatli qarorlar qabul qilish;
- qiymati 3 (uch) bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo‘lgan sovg‘alarni uchinchi shaxslarga Kompaniyada sovg‘alarni qabul qilishning korporativ qoidalari va normalari to‘g‘risida xabardor qilgan holda majburiy qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- yaroqliligi qisqa muddatli bo‘lgan sovg‘alar yuzasidan qarorlar qabul qilish va ulardan ko‘ngilochar xarajatlar sifatida foydalanish imkoniyati to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- Kompaniya xodimlari tomonidan uchinchi shaxslardan olingan sovg‘alarni ko‘rgazmaga qo‘yish maqsadida ko‘rgazmalar zalini tashkil qilish;
- rag‘batlantirish dasturlarini amalga oshirish maqsadida xodimlar tomonidan Kompaniyaga ro‘yxatdan o‘tkazish va saqlash uchun topshirilgan sovg‘alar bilan bog‘liq lotereya tadbirlarini o‘tkazish.

3.3.5 Sovg‘alar Kompaniya foydasiga ixtiyoriy ravishda topshiriladi va ularga nisbatan quyidagilar amalga oshirilishi mumkin:

- Sovg‘alar va tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha komissiya qarori bilan ular xodimlarga yubileylar, bayramlar va boshqa muhim tadbirlar uchun sovg‘a sifatida berilishi;
- Kompaniyaning ko‘rgazma zaliga o‘tkazilishi;
- mehnat shartnomasi bekor qilinganda, nomlari qayd etilgan sovg‘alarning qaytarilishi;
- foydalanish uchun Kompaniyaning biron bir tarkibiy bo‘linmasiga o‘tkazilishi;
- Kompaniyada rag‘batlantirish dasturini amalga oshirish uchun lotereya tadbirlari natijalariga ko‘ra xodimga berilishi mumkin.

4. Ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlar

4.1 Kompaniya xodimlari Kompaniya tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarga uchinchi shaxslarni taklif qilishi mumkin.

4.1.1 Ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlarda ishtirok etish uchun uchinchi shaxslarni taklif qilish Kompaniyada maqbul amaliyot hisoblanadi. Ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlarda ishtirok etish uchun uchinchi shaxslarni taklif qilish Kompaniya tomonidan belgilangan mezon va talablarga, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati tamoyillariga javob bersa, Kompaniya obro‘siga zarar yetkazilmaydi.

4.1.2 O‘quv yoki ilmiy konferensiyalar, seminarlar, taqdimotlar, forumlar va shu kabi boshqa tadbirlarning maqsadi har doim Kompaniya faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish ham Kompaniya faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lishi kerak.

4.1.3 Tadbirga taklif etilgan shaxslar har doim ularning tashrifini uyushtirgan Kompaniya xodimi tomonidan kutib olinishi kerak.

4.1.4 Kompaniya tomonidan taklif etilgan uchinchi shaxsalarning ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlarda, konferensiyalarda, biznes-tushliklarda, kechki ovqatlarda ishtirok etishi Kompaniya tomonidan qoplanishi kerak. Uchinchi shaxslarning tadbirlarda ishtirok etishi uchun xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkilotchiga qoplab beriladi va hech qachon taklif qilingan shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lanmaydi.

4.1.5 Ish faoliyatiga oid qabullari, tushlik, kechki ovqatlarni o‘tkazish Kompaniyaning tegishli hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

4.1.6 Kompaniya tomonidan o‘tkaziladigan har qanday tadbirlarga uchinchi shaxslarni taklif qilish Kompaniya rahbariyati bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

4.1.7 Shaxsning tadbirlarda ishtirok etishi uchun sarflanadigan xarajatlarni aniqlash mumkin bo‘lmagan taqdirda, uchinchi shaxslarni tadbirga taklif qilishga yo‘l qo‘yilishi tadbirning maqsadi, mazmuni va tadbirning biznes yuritilishiga muvofiqligi bilan beglilanadi.

4.2 Kompaniya xodimlari tomonidan Kompaniya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlarda qatnashishi/qatnashmasligi Kompaniya obro‘siga ta’sir qilishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

4.2.1 Kompaniya xodimlariga uchinchi shaxslarning taklifiga binoan ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlarda qatnashishga ruxsat beriladi. Bunday tadbirlarga amalga oshirilayotgan tashrif taklif qiluvchi tomon bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi hamda oqilona narxda va Kompaniyaning imijiga salbiy ta’sir qilmaydigan bo‘lishi kerak. Xodim tomonidan ish faoliyatiga oid va ko‘ngilochar tadbirlarga taklifnomani qabul qilish har doim rahbarning roziligi bilan amalga oshirilishi kerak.

5. Tadbirlar o‘tkazilishini moliyalashtirish uchun maxsus shartlar

5.1 Alohida maxsus joylarda o‘tkaziladigan tadbirlarda, Kompaniya maxsus shartlarda uchinchi shaxslarni, ularning transport va turar joy xarajatlarini qoplagan holda, bunday tadbirlarga tashrifiga homiylik qilishi mumkin. Bunday tadbirlarga Kompaniya hisobidan taklif

qilingan uchinchi shaxslarning ishtiroki masalasi ularning ushbu ishtirokining maqsadga muvofiqligi va qonuniyligi darajasida belgilanadi.

5.2 Maqsadlari faqat o‘yin-kulgi yoki dam olish bo‘lgan bunday tadbirlarda qatnashish uchun uchinchi shaxsalarning sayohat va turar joy xarajatlari to‘lanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5.3 Uchinchi shaxslarning sayohat va turar joy xarajatlarini qoplash har doim Kompaniya tomonidan bevosita tashkilotchiga to‘lanilishi lozim.

5.4 Har qanday qarindoshlar, uchinchi shaxsalar foydasiga maxsus shartlar asosida tadbirlarga homiylik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5.5 Bunday sayyor tadbirlarga uchinchi shaxslarni taklif va homiylik qilish xodimning bevosita rahbari, Yuridik boshqarma, Iqtisodiy xavfsizlik va komplayens boshqarmasi hamda Kompaniya bosh direktori bilan oldindan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Kompaniya xodimlarini bunday tadbirlarga taklif qilishda bevosita rahbarning roziligini olish, shuningdek, Yuridik boshqarma va Iqtisodiy xavfsizlik va komplayens boshqarmasi bilan kelishish kerak.

6. Normativ hujjatlar

6.1 Ushbu Nizom quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:
- Ichki nizom, me’yoriy va ma’muriy hujjatlar;
- Odob-ahloq va etika kodeksi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati.

7. Yakuniy qoidalar

7.1 Ushbu Nizom “O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomomnidan tasdiqlanadi. Mazkur Nizomga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar Kuzatuv kengashining tegishli qarori asosida “O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

7.2 Agar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va nomativ-huquqiy hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida ushbu Nizomning ayrim moddalari ularga zid bo‘lsa, ushbu moddalar o‘z kuchini yoqotadi va Nizomga o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va normativ-huquqiy hujjatlariga amal qiladi.